Yuldashev Rashid Yigitaliyevich
Namangan davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi
yuldashevrashid@gmail.com

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI TA'LIM MUASSASALARI RIVOJIDA REYTING TIZIMINING AHAMIYATI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7988180

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasi ta'lim muassasalari rivojida reyting tizimining ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholashda ishlatiladigan mezonlar haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: reyting tizimi, jismoniy tarbiya, ta'lim, muassasa, sport

KIRISH

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli mamlakatimiz jahon hamjamiyatida barqaror o'rnini topdi, xalqimizning turmush tarzi o'zgardi, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy va jismoniy barkamolligini ta'minlash tizimi joriy etildi. Amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimiz insonga va uning yanada farovon yashashiga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan fan-texnika va axborot kommunikatsiya texnologiyalari davrida ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini yanada rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada sohalarni uzluksiz rivojini ta'minlash va zamonaviy talablarga javob berish uchun turli reyting tizimlari ishlab chiqilmoqda. Bularga misol sifatida: "Jismoniy tarbiya o'qituvchilari (instruktor, kafedra mudirlari) faoliyati samaradorligini baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom" [1], "Ilmiy tashkilotlar reytingini aniqlash tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizom" [2], "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom" [3], "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini reyting tizimi asosida baholash tartibi to'g'risidagi Nizom"larni keltirish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlarni yanada takomillashtirish yo'lida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 fevraldagi 90-son qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini reyting tizimi asosida baholash tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. Bu Nizomga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport tizimidagi bolalar va o'smirlar sport maktabi, ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi, olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi, oliy sport mahorati maktabi, olimpiya zaxiralari kolleji, olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati, futbol mahorat maktablari hamda respublika oliy sport mahorati maktablarining faoliyati samaradorligini reyting tizimi asosida baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini reyting tizimi asosida baholash tartibi to'g'risidagi Nizomning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash hamda tushunish uchun uning maqsad va vazifalarini tahlil qilishimiz lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dunyoning yetakchi mamlakatlarida sohalar faoliyatini tashkil etishning ilmiy-uslubiy adabiyotlari, dasturiy hamda me'yoriy hujjatlarini tahlil qilish, umumlashtirish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin. Rus tadqiqotchisi M.M.Starchekov fikricha,

reyting tizimi dunyo tajribasida o‘zini oqlagan tizim sanaladi [5]. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta’lim muassasalari rivojini ta’minlashda ham reyting tizimi qo‘llaniladi. Sport amaliyotida reyting tushunchasi eng yaxshi sportchilarni, jamoalarni aniqlash va saralash uchun ishlatiladi. Yana bir rus tadqiqotchisi V.I.Kojanov “Jismoniy tarbiya va sport ta’lim muassasalarida reyting tizimi birinchi navbatda o‘quvchi-talabalar tomonidan ma’lum vaqt davomida o‘zgarmagan standart qoidalar bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisini aniqlaydi deb xisoblaydi [6]. Bunda esa reytingni aniqlash hamda ushbu maqsad uchun maxsus ishlab chiqilgan texnologiya - baholashning reyting tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizning sport ta’lim muassasalarida reyting tizimi asosan o‘quv jarayonini boshqarish sifatini oshirish qaratilgan bo‘lib, unda:

- birinchidan, o‘quvchi-talabalarning bilim faolligi;
- ikkinchidan, o‘quvchi-talabalarning individual ta’lim imkoniyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan o‘qitish usullari darajasi;
- uchinchidan, o‘quvchi-talabalarning kundalik faoliyatlaridagi dars mashg‘ulotlarida uchraydigan muammolarga e’tibor qaratiladi.

Biroq, reyting tizimi faqatgina ta’lim muammolarini yechishga mo‘ljallanmaydi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda qabul qilingan Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport ta’lim muassasalarining faoliyati samaradorligini belgilaydigan reyting tizimining maqsadi o‘zida quyidagi mezonlarni aks ettirgan:

- birinchidan, sport-ta’lim muassasalari orasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish;
- ikkinchidan, sport-ta’lim muassasalarining faoliyat darajasi va sifatini oshirish hamda ularning faoliyati samaradorligini aniqlash;
- uchinchidan, sport-ta’lim muassasalarini rag‘batlantirish;
- to‘rtinchidan, respublika milliy va hududiy terma jamoalariga nomzodlarni tayyorlash sifatini oshirish.

Yuqoridagi maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- sport-ta’lim muassasalarida olimpiya sport turlari bo‘yicha shug‘ullanuvchilar sonini oshirish natijasida olimpiya sport turini rivojlantirish;
- sport-ta’lim muassasalarida sport razryadlari va unvonlariga ega bo‘lgan sportchilar sonini oshirish natijasida sifatli va iqtidorli sportchilarni tanlash, tayyorlash, seleksiya qilish (saralash) ishlarini tashkil qilish;
- sport-ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan trenerlar, metodistlar, shifokorlarning salohiyatini oshirishga erishish;
- sport-ta’lim muassasalarida metodistlar tomonidan o‘quv va metodik ishlanmalar sifati sonini oshirish;
- sport-ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarish;
- sport-ta’lim muassasalarining boshqa ta’lim muassasalari bilan hamkorligini oshirishga erishish.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning reyting tizimi quyidagi ta’lim muassasalariga tadbiq qilinadi:

- Bolalar va o‘smirlar sport maktabi hamda ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari;
- Olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari hamda oliy sport mahorati maktablari;
- Olimpiya zaxiralari kollejlari, olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari hamda futbol mahorat maktablari faoliyati;
- Respublika oliy sport mahorati maktablari.

Jismoniy tarbiya va sport ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholashda bir qancha mezonlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagi ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadi [4]:

1) Bolalar va o‘smirlar sport maktabi

hamda ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari:

- Moddiy-texnik bazasi mavjudligi va uning holati (mavjud sport turlari bo‘yicha yaratilgan imkoniyatlar, sport inshootlari, sport jihoz va anjomlarining mavjudligi);
- Sport turlarining mavjudligi (Olimpiya sport turlari);
- Sportchilar kontingenti (hududda yashaydigan o‘quvchi-yoshlarga nisbatan sport maktabiga jalb qilingan yoshlar soni, o‘quv yilida saqlab qolingan sportchilar soni);
- Sport razryadlarining bajarilishi (I, II, III razryadlar yoshlar va kattalar soni bo‘yicha, sport ustaligiga nomzodlar soni, sport ustalari soni, Respublika terma jamoasi tarkibi asosiy va zaxiraga qabul qilingan sportchilar soni, sportchilarni tizimli ravishda keyingi sport-ta’lim muassasasalariga o‘tkazilganlari soni);
- Trenerlar salohiyati (Oliy ma’lumotli mutaxassislar soni sohalar bo‘yicha, oliy toifali mutaxassislar soni, davlat mukofoti bilan taqdirlangan trenerlar soni);
- Metodistlar (Oliy ma’lumotli va oliy toifalilar);
- Yil davomida erishilgan sport natijalari medallar hisobida (tuman, shahar birinchiligida, hududiy Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chempionatlarida, Respublika chempionatida, Xalqaro musobaqalarda);
- Shifokorlarning salohiyati (Oliy toifalilar soni);
- Qayta tayyorlash va malaka oshirish (Trenerlar, metodistlar, shifokorlar soni bo‘yicha);
- O‘quv-metodik ta’minot va nashr ishlari: o‘quv-metodik qo‘llanma, tavsiyanoma va boshqa nashr ishlari bo‘yicha (metodik-tavsiyanoma, metodik-qo‘llanma, o‘quv qo‘llanmalar soni);
- Boshqa ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha (hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomalar va bitimlarning mavjudligi);
- Madaniy-ma’rifiy va ommaviy sport tadbirlari bo‘yicha (tadbirlar tashkil etilganligi).

2) Olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari hamda oliy sport mahorati maktablari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari:

- Moddiy-texnik bazasi mavjudligi va uning holati (mavjud sport turlari bo‘yicha yaratilgan imkoniyat holati, yotoqxona bilan ta’minlanganlik darajasi, sport inshootlarining ta’mirlanganlik darajasi, sport jihoz va anjomlari mavjudligi bo‘yicha)
- Sportchilar kontingenti (BO‘SMlardan jalb qilingan sportchilar soni bo‘yicha)
- Sport razryadlarining bajarilishi bo‘yicha (I razryad kattalar bo‘yicha, cport ustaligiga nomzodlar soni, sport ustalari, Respublika terma jamoasi tarkibi asosiy va zaxiraga qabul qilingan sportchilar soni bo‘yicha)
- Trenerlar salohiyati bo‘yicha (Oliy ma’lumotlilar soni, oliy toifalilar soni, davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar, xizmat ko‘rsatgan murabbiylar soni)
- Metodistlar bo‘yicha (Oliy ma’lumotlilar soni, oliy toifalilar soni)
- Yil davomida erishilgan sport natijalari: medallar hisobida (Respublika chempionatlarida, Xalqaro turnirlarda, Osiyo chempionatlarida, Jahon chempionatlarida)
- Shifokorlarning salohiyati bo‘yicha (Oliy toifalilar soni)
- Qayta tayyorlash va malaka oshirishdan o‘tganligi bo‘yicha (Trenerlar, metodistlar, shifokorlar soni)
- O‘quv-metodik ta’minot va nashr ishlari bo‘yicha (Metodik tavsiyanomalar soni, metodik-qo‘llanmalar soni, o‘quv qo‘llanmalar soni)
- Boshqa ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha (Hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomalar va bitimlarning soni)
- Madaniy-ma’rifiy va ommaviy sport tadbirlari bo‘yicha (Ta’lim muassasasining jamoatchilik kengashi yig‘ilishini o‘tkazilishi, tadbirlar tashkil etilganligi, sport mashg‘ulotlari va o‘quv mashq yig‘inlari nazoratga olinganligi)

3) Olimpiya zaxiralari kollejlari, olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari hamda

futbol mahorat maktablari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari:

- Moddiy-texnik bazasi mavjudligi va uning holati bo‘yicha (Mavjud sport turlari soni, sport inshootlari soni, sport jihoz va anjomlarining mavjudligi)
- Sport razryadlarining bajarilishi bo‘yicha (I razryad kattalar soni, Sport ustaligiga nomzodlar soni, sport ustalari soni, Respublika terma jamoasi tarkibi asosiy va zaxiraga qabul qilingan sportchilar soni, OTMga qabul qilingan bitiruvchilar soni)
- Trenerlar salohiyati bo‘yicha (Oliy ma’lumotlilar soni, oliy toifalilar soni, Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar, xizmat ko‘rsatgan murabbiylar soni)
- Metodistlar bo‘yicha (Oliy ma’lumotlilar soni, oliy toifalilar soni)
- Yil davomida erishilgan sport natijalari: medallar hisobida (Respublika chempionatlarida, Xalqaro turnirlarda, Osiyo chempionatlarida, Jahon chempionatlarida, Osiyo o‘yinlarida, Olimpiya o‘yinlarida)
- Shifokorlarning salohiyati bo‘yicha (Oliy toifalilar soni)
- Qayta tayyorlash va malaka oshirishdan o‘tganlik bo‘yicha (Trenerlar, metodistlar, shifokorlar, pedagoglar soni)
- O‘quv-metodik ta’minot va nashr ishlari bo‘yicha (Metodik tavsiyanomalar soni, metodik-qo‘llanmalar soni, o‘quv qo‘llanmalar soni)
- O‘quvchi-sportchilarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi bo‘yicha (har ikki chorakda bir marta umummiy o‘quv rejasidagi fanlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi orqali aniqlanadi)
- Boshqa ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha (hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomalar va bitimlarning mavjudlik soni)
- Madaniy-ma’rifiy va ommaviy sport tadbirlari bo‘yicha (Ta’lim muassasasining jamoatchilik kengashi yig‘ilishini o‘tkazilishi, tadbirlar tashkil etilganligi, sport mashg‘ulotlari va o‘quv mashq yig‘inlari nazoratga olinganligi)

4) Respublika oliy sport mahorat maktablari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari:

- Moddiy-texnik bazasi mavjudligi va uning holati bo‘yicha (Mavjud sport turlari soni, sport inshootlari soni, sport jihoz va anjomlarining mavjudligi);
- Sport razryadlarining bajarilishi bo‘yicha (Sport ustalari soni, Xalqaro toifadagi sport ustalari soni);
- Trenerlar salohiyati bo‘yicha (Oliy ma’lumotlilar soni, oliy toifalilar soni, Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar, xizmat ko‘rsatgan murabbiylar soni);
- Metodistlar bo‘yicha (Oliy ma’lumotlilar soni, oliy toifalilar soni);
- Yil davomida erishilgan sport natijalari: medallar hisobida (Respublika chempionatlarida, Xalqaro turnirlarda, Osiyo chempionatlarida, Jahon chempionatlarida, Osiyo o‘yinlarida, Olimpiya o‘yinlarida);
- Shifokorlarning salohiyati bo‘yicha (Oliy toifalilar soni);
- Qayta tayyorlash va malaka oshirishdan o‘tganlik bo‘yicha (Trenerlar, metodistlar, shifokorlar, pedagoglar soni);
- O‘quv-metodik ta’minot va nashr ishlari bo‘yicha (Metodik - tavsiyanomalar soni, metodik-qo‘llanmalar soni, o‘quv qo‘llanmalar soni);
- Boshqa ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha (hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomalar va bitimlarning mavjudlik soni);
- Madaniy - ma’rifiy va ommaviy sport tadbirlari bo‘yicha (tadbirlar tashkil etilganligi, sport mashg‘ulotlari va o‘quv mashq yig‘inlari nazoratga olinganligi).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport ta’lim muassasalarining faoliyati samaradorligini belgilaydigan reyting tizimi sohani tadrijiy rivojlanish yo‘lini ta’minlashda yuqori ahamiyatga egadir.

Shu bilan birga jismoniy tarbiya va sport ta’lim muassasalarining zamon talablari asosida o‘z faoliyatlarini yanada rivojlantirib borish va o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida sifat ko‘rsatkichlarini oshirish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

- real vaqt rejimida sport ta’lim muas-

sasalarining ishlashini kuzatib borish va boshqaruv jarayoniga tuzatishlar kiritish imkonini beradigan samarali monitoring mexanizmini ishlab chiqish;

- jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning konseptual modelini yaratish;

- jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari o'qituvchi-murabbiylarining malakasini baholash ko'rsatkichlarini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 4 ноябрдаги "Кураш миллий спорт турини ривожлантириш ва унинг халқаро нуфузини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4881-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 11 майдаги "Илмий ташкилотлар рейтингини аниқлаш тартибини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида" ги 274-сон қарори

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг касб-ҳунар таълими марказининг 2018 йил 28 августдаги 6-мҳ, 15-2018, 8/ққ-сон қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 17 февралдаги "Спорт-таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 90-сонли қарори.

5. Столов И.И. Спортивный резерв: состояние, проблемы, пути решения. - М.: Советский спорт, 2008.-132 с.

6. Кожанов В.И. Применение системы рейтингового контроля в управлении физическим воспитанием студентов. Автореферат. кан.дисс.пед.наук. Йошкар-Ола 2006. 3-ст. (26 ст)

Юлдашев Рашид Йигитальевич
Преподаватель кафедры физической культуры
Наманганского государственного университета

ЗНАЧЕНИЕ РЕЙТИНГОВОЙ СИСТЕМЫ В РАЗВИТИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В СФЕРЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

Аннотация. В данной статье описывается значение рейтинговой системы в развитии образовательных учреждений в сфере физической культуры и спорта. Также говорится о критериях, используемых для оценки эффективности физкультурно-спортивных учебных заведений.

Ключевые слова: рейтинговая система, физическое воспитание, воспитание, учреждение, спорт

Yuldashev Rashid Yigitalievich
Teacher of the Department of Physical Culture of
Namangan State University

THE IMPORTANCE OF THE RATING SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS

Annotation. This article describes the importance of the rating system in the development of educational institutions in the field of physical education and sports. It also talks about the criteria used to evaluate the effectiveness of physical education and sports educational institutions.

Key words: rating system, physical education, education, institution, sport